

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA SERQIRRA IJODKOR,ROMAN VA
HIKOYANAVIS SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HAYOTI VA IJODIGA
NAZAR**

Meliyeva Parvina

Yuridik fakulteti

Sotsiologiya yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya; Ushbu maqolada O‘zbek adabiyotining roman,qissa va hikoya janrlarida ijod qilgan,o‘z ijodi bilan nafaqat o‘z ustozlari va mashhur shoirlarning qalbidan o‘rin olgan,balki chet el shoirlari e’tiborini tortib,asarlari ko‘p tillarda tarjima qilingan Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodi haqida to‘xtalamiz. Shu bilan birga shoir asarlarida aks etgan voqealar,qissa va hikoyalarida bir tomondan,yoshlik va talabalik yillarining o‘ziga xos romantikasi ifodalangan bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘zi tug‘ilib o‘sgan,yoshlik davri o‘tgan joyning turfa tabiatli kishilar hayoti,va ularning ruhiy olamida kechgan kurashning badiiy talqinini topadi.

Kalit so‘zlar; publitsistik, realistik tasvir, publitsistika, badiiy uslub, janr, surxon koloni, inson tabiati.

Shukur Xolmirzayev 1940-yil 24-mart kuni Surxondaryo viloyati Boysun tumanida tavallud topgan. U Toshkent davlat universitetining Jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Shoirning dastlabki hikoya va ocherklari 1958-yildan nashr etila boshlandi. Shukur Xolmirzayev ijodining ilk davridayoq hikoya bilan bir qatorda qissa janrida ham qalam tebratib, “Oq oti” (1962), “To‘lqinlar” (1963), “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” (1965) qissalarini yaratdi. Ushbu qissalar shoirning talabalik yillarida yozilgan bo‘lib, tengqurlari hayotiga bag‘ishlangan. Xususan “To‘lqinlar” qissasida zamondoshlarimizning murakkab taqdirini

qalamga olinishi va o'ziga xos mahorati bilan Abdulla Qahhorning e'tiborini tortgan va ulkan adib talaba Shukurga maktub bitib, uni qutlagan edi. Yozuvchining "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasi avlodlar qismatiga, aniqrog'i o'z avlodi-tengqurlari hayotiga bag'ishlangan bo'lib, voqelik ilk muhabbat iztiroblari tarixida tasvirlanadi. Bu asarlar 60-yillardagi o'zbek qissalarining eng yaxshi namunalaridan bo'lib qoldi. Yozuvchining shu davrda yozgan hikoyalari keyinchalik "Olis yulduzlar ostida" (1971), "Hayot abadiy" (1974), "Og'ir tosh ko'chsa" (1980), "Yo'llar, yo'ldoshlar" (1984), "Bodom qishda gulladi" (1986), "Tog'larga qor tushdi" (1987) singari to'plamlaridan o'rin oldi va "So'ngi bekat", "Qil ko'prik", "Yo'lovchi", "Olabo'ji" kabi romanlari chop etildi.

Shukur Xolmirzayevning hikoya va qissalarida, bir tomondan, yoshlik va talabalik yillarining o'ziga xos romantikasi ifodalangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yozuvchi tug'ilib o'sgan Boysun tumanida yashovchi turfa tabiatli kishilar hayoti, jamiyatda va ular ruhiy olamida kechgan kurash va o'zgarishlar o'zining badiiy talqinini topdi. Keyinchalik Boysun va boysunliklar hayoti Shukur Xolmirzayev ijodining asosiy mavzusi darajasiga ko'tarilib, yozuvchi ijodida realistik tasvirning ustuvor yo'nalishga aylanishida muhim omil bo'ldi. Shukur Xolmirzayev voqelikdagi murakkab hayotiy jarayonlar va kishilarning ziddiyatlardan iborat ruhiy olamini kashf eta borgani sayin uning dastlabki hikoya va qissalaridagi romantik pafos endi o'z o'rnini realizmga bo'shatib berdi va yozuvchining o'zbek adabiyotiga "shafqatsiz realism" unsurlarini olib kirishiga imkoniyat yaratdi. XX asrning 80—90-yillarda yaratgan asarlarida mazkur davrdagi jamiyat va xalq hayotining chuqur badiiy tahlilini berdi. Shukur Xolmirzayev yozuvchilar orasida birinchilardan bo'lib o'zbek xalqi tarixining "bosmachilik harakati" deb atab

kelingan davrini o'rgana boshladi. Yozuvchining "Qil ko'prik" romani va "Qora kamar" (1987) pyesasida shu mavzu o'z ifodasini topdi. Ularda adashgan kishilar fojiasi obrazlarda yorqin gavdalantirilgan.

Sh. Xolmirzayevning "Ot egasi", "Podachi" hikoyalarida insonning hayvonga muhabbati "Ko'kboy" hikoyasida hayvonning insonga sadoqatini ko'ramiz. E'tibor qilgan o'quvchi yozuvchining aksar hikoyalarida ayni mavzuga murojaat etilib, tabiatga aloqador gaplar katta ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy muammolar, inson va uning taqdiri, tarbiyasi haqidagi falsafiy fikrlar bilan tutashib ketganligini ko'radi. Inson tabiatdan tirqishsiz devor orqali ajralib turmaydi, barcha borliq, mavjudot biri ikkinchisidan oladi yoki beradi.

Ushbu prinsip nafaqat inson va tabiat o'rtasidagi munosabatda amal qilinadi, balki bu tuyg'u inson va hayvonot dunyosida, ularning o'zaro munosabatida ham ko'rinadi. Bunday uzviy bog'liqlikni aks ettirgan hikoyalarda bir dunyo bilan ikkinchi dunyoni, bir olam bilan ikkinchi olamni vafo, sadoqat, mehr-muhabbat tushunchalari bog'lab turadi.

Sh. Xolmirzayev, so'nggi yillarda Sh. Burhonov, B.Zokirov, R.Choriyev, Shuhrat, O.Yoqubov, O'.Umarbekov, A.Oripov, M.Qo'shjonov singari taniqli adabiyot va san'at namoyandalari haqida esselar va adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Shu bilan birga shoir J.London, E.Xeminguey, S.Tompson kabi jahonning mashhur yozuvchilari qatorida tabiat mavzusida takrorlanmas asarlar yaratdiki, bu yozuvchi ijodining alohida bo'rtib ko'rinib turuvchi bir qismidir.

Sh. Xolmirzayev– roman janrida bir qator asarlar yozgani va bu asarlar shu davr o'zbek romannavisligi tarixida muayyan o'ringa ega bo'lishiga qaramay, avvalo hikoyanavis. U o'z hikoyalarida A.Qodiriy, A.Qahhor kabi o'zbek

yozuvchilarining eng yaxshi an'analarini davom ettirish bilan birga o'zbek hikoyanavisligini rus va Yevropa yozuvchilarining badiiy tajribalari bilan ham boyitdi. Sh. Xolmirzayevning eng yaxshi hikoyalari qahramon obrazining yangi va yorqinligi, kompozitsiyasining o'ziga xosligi, qahramonlar tilining rang-barangligi bilan ajralib turadi.¹

Shukur Xolmirzayev dramaturgiyaga ham qo'l urib, "Qora kamar" pyesasini yozdi, unda o'tgan asrning 20-yillari boshlaridagi milliy ozodlik harakati, mustaqillikka erishish yo'lida olib borilgan ziddiyatli kurashlar aks ettiriladi. U bu asari orqali bosmachi tamg'ali o'zbek vatanparvarlarini ilk bor ulug' ozodlik, mustaqillik g'oyasi uchun qahramonona kurash olib borgan fidoyi millatparvar qiyofasida haqqoniy badiiy aks ettirib berdi.

Shukur Xolmirzayevning XX asrning 70-yillaridan boshlab o'zbek hikoyachiligida badiiy nigohi ajralib turadi. Bu nigoh o'z davri kishisining ichini, dunyosini, hislarini ko'rib turadi, uni badiiy detallarga aylantiradi, keyin uni xuddi Boysundagi qizlar qirlarini osgandek turli asarlar toriga osib qo'yib, bizga ko'z-ko'z qiladi. To'p, cho'zilgan quloq, oqsoq turna, chillak, bodom guli, dasht odami, o'zbekcha xarakter va boshqa detallar o'zbek nasrining zamonaviy jahon adabiyotiga ulush bo'lib qo'shiladigan badiiy va puxta detallaridir. Bu detallardagi og'riq yana ko'p zamonlar faqat adabiyotshunoslarni emas, keng ommani o'ziga jalb qilib, Shukur aka ardoqlagan Inson va Qalb haqida, Shukur aka alqagan inson g'ururi va sha'ni haqida hikoya qilib turadi. Bu asarlar, aslida, Shukur Xolmirzayevning qalbi va dardining turli ko'rinishlari edi. Agar yana ellik yillar

¹ [Shukur Xolmirzayev - Vikipediya](#)

o‘tib: “Sh.Xolmirzayev qanday odam edi?” – deb so‘rasha, bu savolga, shubhasiz, asarlari to‘liq javob bera oladi. Bunga shubha yo‘q.²

Sh.Xolmirzayev ijodining alohida xususiyati shundaki, bu adib o‘zbek milliy hikoyachilik san’atini ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bosqichga ko‘tardi. Uning povest va romanlari hech aqlga sig‘mas, tesha tegmagan obraz, xarakterlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Sh.Xolmirzayevning so‘nggi romani “Dinozavr”dir. Muallifning aytishicha: “Kuchlilar yengadi, kuchsizlar yengiladi, deyilgan nazariya noto‘g‘ri. Agar kuchlilar yengish qobiliyatiga ega bo‘lganlarida, avvalo, dinovavr yenggan bo‘lardi. Yo‘q, u o‘ladi. Sabab? U shakllanib bo‘lgan. Shundoq-da: ko‘p mardlar maydonga kiradilar. Ular o‘limlarini bilishadi. Ammo ular uchun orqaga yo‘l yo‘q. Qo‘rqoqlar-chi? O‘shandayoq kavaklariga kirib olishganlar”.

Bunday qarash qanchalik munozarali bo‘lmasin, muallifning bugungi kunni - yangi davrni qabul qilishdagi ziyolilar fojiasi va iztiroblarini aks ettirishda o‘ziga xos bir yo‘l tutgani sezilib turadi.

Serqirra ijodiy faoliyat egasi, millatimizning fidoyisi Shukur Xolmirzayev roman, qissa, hikoya, drama singari janrlarda ko‘plab badiiy asarlardan tashqari ijod psixologiyasi, ijodkor shaxsiyati, adabiyot va jamiyat munosabati kabi masalalarga bag‘ishlab o‘nlab adabiy-tanqidiy maqolalar ham yozgan. Aslida, ijod psixologiyasi, ijodkor shaxsiyati hamda ular o‘rtasidagi ko‘zga ko‘rinmas, g‘oyatda nozik robita barcha zamonlarda bahs-u munozaralarga sabab bo‘lib keladi. Qizig‘i, bu borada so‘nggi xulosani aytish imkonsizdir. Ayni

² Shukur Xolmirzayev. Adabiyot, yozuvchi va ijod haqida & Nazar Eshonqul. Shukur Xolmirzayev haqida | Xurshid Davron kutubxonasi.

chogʻda, adabiyot haqida har kimning oʻz nuqtali nazari boʻlishi ham tabiiy. Shu maʼnoda bilimdon adib, chin ziyoli Shukur Xolmirzayevning adabiyot, ijod va hayot haqidagi fikrlari hech kimni befarq qoldirmaydi. Qolaversa, shoir uchun adabiyot hayot kechirish vositasi emas, balki yashashning shakli ediki, soʻz sanʼatiga soʻngsiz fidoiylilik nafaqat oʻzbek, balki dunyo adabiy jarayonida ham kamyob hodisa sanaladi.

Sanʼatsiz, adabiyotsiz yashashni tasavvur etolmaydigan qahramonlar talqini SH.Xolmirzayevning soʻnggi davrda yozgan asarlarida bot-bot koʻzga tashlanadi, binobarin, ushbu omil ham yoshi ulgʻayib, hayotdagi aqidalari qatʼiylashgan, xulosalari aniqlashgan muallifning maslagi haqidagi tasavvurimizni yanada boyitadi. Ijodkorlikning qismat, umr savdosi ekanini anglatuvchi taʼkid shoirning adabiy-tanqidiy maqolalarini umumlashtirib turuvchi yagona mushtarak belgidir.

Shoir oʻzbek adabiyotida oʻzgacha ijod namunalari qoldirdi va unga davlatimiz tomonidan 1989-yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotiga, 1991-yilda Oʻzbekiston xalq yozuvchisi unvoniga musharraf boʻlgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev XX asr oʻzbek adabiyotining rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan taniqli yozuvchidir. U oʻzining yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan betakror nasri bilan oʻzbek xalqi maʼnaviyatining yuksalishida oʻziga xos oʻringa ega. Shoir asarlarining koʻpida bosh mavzu-inson va tabiat boʻlib kelgan. Sababi uning oʻzi tugʻilib oʻsgan goʻzal makon, u yerdagi insonlar va ularning ruhiy olamini oʻzgacha tarannum etgan.

Shukur Xolmirzayev oʻzi hayotni teran anglagan, insoniyat ruhiyatidagi oʻzgarishni seza oladigan inson edi. Shuning uchun ham u asarlarida tabiat

qonuniyatlari asosida ish ko‘radi, bu tabiiylik hech qachon buzilmasligi kerakligi, buzilgan taqdirda katta falokatlar, fojialar keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xulosalar chiqaradi. Shukur Xolmirzayev adabiyotga surxon kolonini, tabiati, havosini olib kirgan yozuvchi. Olib kirganda ham betakror uslubda zavq bilan ifodalagan oltin qalam sohibidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayev - Vikipediya.
2. Shukur Xolmirzayev. Adabiyot, yozuvchi va ijod haqida & Nazar Eshonqul. Shukur Xolmirzayev haqida /Xurshid Davron kutubxonasi.
3. Shukur Xolmirzayev. “Bir oqshom suhbat yoki do‘stim Ro‘zi Choriyev”. www.kh-davron.uz.
4. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodi. Tarjimai holi. Asarlari.
5. O.Eshdavlatova, G.Jo‘rayeva. Shukur Xolmirzayev o‘zbek milliy hikoyachilik san’atining san’atkori.
6. Shukur Xolmirzayev tarjima hol. Asarlari, romanlari, hikoya va qissalari
7. Shukur Xolmirzayev adabiyot, yozuvchi va ijod haqida.
8. <https://e-adabiyot.uz/maqola/621>.